

YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6831983>

Raxmonova Mashxuraxon Azamatjon qizi

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
Universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Hozirgi davrda yagona axborot makoniga aylangan g'oyalar kurashi kun sayin virtuallashib bormoqda. XXI asrda insonlar og'irini yengil qiladigan nanotexnologiyalar shiddat bilan rivojlanyapti. Albatta, tanning ikki tomoni bo'lgani kabi globallashuv va virtuallashuvning ham ijobiy hamda salbiy tomonlari bor. Bugungi kunda Internet jamoatchilik ongiga turli darajadagi psixologik ta'sir kuchiga ega va ta'sir etib kelmoqda ham. Ushbu maqolada axborot makoni va virtual olamning tobora hayotimizga kirib kelayotgani va yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari hamda omillari haqida manbalar o'rganilib, fikr va mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, uchinchi Renessans, yoshlar, virtuallashuv, media makon, nanotexnologiyalar, Internet.*

Yangi O'zbekiston deganda ko'z oldimga yoshlar uchun chinakam qanot beradigan zamin gavdalanadi. Aslida ham vatanimiz yoshlar uchun imkoniyatlar beshigi deb aytsam xato bo'lmaydi. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 65 % izi yoshlardir. Hech shak-shubham yo'qki, 18 milliondan ortiq har bir yoshning qalbida men kabi yorqin va umidli kelajakka bo'lgan ishonchi baland. Boisi, yurtimizda yoshlarning ilm olishi, sport bilan shug'illanishi va o'z qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun barcha sharoitlar bor. Buni 4 yil davomida Yoshlar ittifoqida faol bo'lib, turli tanlovlarda qatnashib yurgan vaqtlarimdan bilaman. **“Yoshlar kelajagimiz”, “5 tashabbus”, “Qizlar ovozi”** va shu kabi o'nlab loyihalar orqali yoshlarni o'zlariga bo'lgan ishonchini orttirish va ularni chinakam lider qilib tarbiyalash orqali O'zbekiston dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari safida bo'ladi.

Vatanimizda ham allaqachon ko'plab sohalar elektronlashtirilishni boshladi. Raqamli iqtisodiyotga o'tish orqali eksport-import jarayonlari soddalashayotgan vaqtda ijtimoiy hayotimizdaga kirib kelgan elektron tizim sabab insonlarga ancha qulayliklar yaratildi. Reportaj tayyorlashga olis qishloqlarga borganimda, rivojlanish u joylarga ham yetib borgani kishini quvontiradi. Yuqoridagi sanab o'tganlarim raqamli va virtual olam rivojining hayotimizga olib kirgan ijobiy xususiyatlari bo'lsa tanganing ikkinchi tomoni ham bor, afsuski. Axborot asri deb atalayotgan 21-asrda hech bir

davlat yoki jamiyat o'z-o'zidan temir devor bilan o'ralgan holda yashay olmaydi. Virtual olam va axborot makoni insonlar, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod psixologiyasiga ta'sir etishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Norasmiy internet nashrlar orqali buzg'unchi g'oyalarga ega bo'lgan ba'zi odamlar ommaviy axborot vositalarining bu kuchidan o'zlarining shafqatsiz maqsadlari uchun foydalanishga harakat qilishadi.

Virtual olam ichiga tushib qolgan bolalarni juda ko'p ko'rganman. Bunga sabab ularning virtual o'yin va ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgani. Buning ortidan esa ko'plab o'quvchilarda asabiylik, psixologik buzilishlar, xotira pasayishi va ishtiyoqsizlik kabilar shakllanib borayotganining o'zi uning dolzarb masala ekanini ko'rsatib turibdi. Rivojlangan mamlakatlar axborot tarqatishdan qanday maqsadlarni ko'zlaydi, degan savolga oddiy javob quyidagicha: o'z turmush tarzini targ'ib qilish orqali mafkuraviy hukmronlikka erishish. Yoshlarimizning har tomonlama: **ma'nau, aqlan, ruhan va jismonan kuchli qilib tarbiyalash** orqaligina ularni mafkuraviy va virtual tahdidlaridan asrash mumkin.

Bugungi kunda axborot oqimi haddan tashqari qizg'inlashmoqda. So'nggi ellik yil ichida dunyo bo'ylab aylanayotgan axborotlar hajmi million barobarga oshgani, ilg'or texnologiya vositalarida kundan-kunga ko'payib borayotgani kuzatilmqda. Ba'zi rivojlangan mamlakatlar kuchli axborot texnologiyalaridan birinchi navbatda o'z manfaati uchun xizmat qiladigan axborotni tarqatish uchun foydalanadi. Bu bilan u boshqa davlatlar ustidan mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan hukmronlik qilishga urinayotganga o'xshaydi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun dunyoda hukmronlik qilishga intilayotgan ayrim qudratli davlatlar, eng avvalo, inson huquqlari yoki demokratiya niqobi ostida o'z mafkura va g'oyalarini boshqa davlat va xalqlar o'rtasida yoyish va targ'ib qilishga harakat qilmoqda.

Internetning salbiy tomonlari: xohlagan odam virtual maydonga istalgan ma'lumot bilan to'siqsiz kirishi mumkin. Ota-onalar qanchalik bolalarga to'siqlar qo'yishmasin, ular doimiy nazorat yetishmasligidan foydalanib qolishadi. Natijada, Internet "ommaviy madaniyat", korrupsiya, qo'pollik, pornografiya va boshqa illatlar g'oyalarini targ'ib qiluvchi maydonga aylanishi mumkin. Birinchidan, internetda axborotni tayyorlash va tarqatish arzon, u davlat chegaralaridan bemalol o'tadi. Internet orqali amalga oshirilayotgan axborot xurujlarining oldini olish juda qiyin. Buni qo'llaganlarning ba'zilari Internet orqali o'zlarining maqsadlarini amalga oshirishga urinadilar. Ular har tomonlama ma'naviy tahdid qilishga harakat qilishadi. **Xo'sh, virtual makon yoshlar axloqiga qanday tahdid qiladi?**

Ma'naviy tahdid deganda, eng avvalo, tili, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, har qanday shaxsning erkin shaxs sifatida mavjudligiga qarshi chiqishga qaratilgan, uning ma'naviy olamini yo'q qilishga qaratilgan g'oyaviy, mafkuraviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish kerak.

Masalaga amaliy ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday ta'sirchanlik xalqimizni asrlar davomida ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan, xalqimizga xos bo'lgan an'analarimizga tahdiddir. Milliy g'urur tuyg'usi bizni doimo tadrijiy taraqqiyotga undaydigan, shu yo'l bilan barcha illatlardan xalos bo'lib, uni qayta tiklashdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradi. Yoshlarning ma'naviyati, o'zining bugungi va ertangi istiqbolini o'ylab yashayotgan har bir ongli inson, har bir xalqni tashvishga solishi tabiiy, albatta. Boisi, yurtning, har bir millatning ertasi ham shu yoshlar. Ularning tarbiyasiga befarqlik bu o'z tomiriga bolta urish bilan barobar aslida.

Xulosa qilib aytganda, virtual olam faqatgina salbiy tomondan iborat emas. IT sohasi rivojlanib borayotgan bir davrda mamlakatimiz ham o'zining yetakchi dasturchilari bilan bemalol faxrlana oladi. Men o'zim Google, Amazon, Apple, Paypal, Master Card kabi jahonning eng katta kompaniyalarida ishlayotgan vatandoshlarimiz bilan suhbatlashganimda yaqin kelajakda O'zbekiston ham virtual makonning yaratuvchi vakillaridan bo'ladi va dunyoni lol qoldiradigan yangi nanotexnologiyalar, aynan bizning yurtda ixtiro qilinadi deb o'yladim. Respublikamiz bo'ylab ochilgan IT parklar ham aslida shu maqsadlarning ro'yobi uchun bunyoq qilindi, aslida. Faqatgina yoshlarda turli yot g'oyalarga qarshi **"Immunitet"** shakllantirish zarur. O'z dunyoqarashi va fikrlashi bo'lgan yoshlar hech qachon virtual olamga tobe bo'lib qolmaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi.

Bu borada esa menda 2 ta taklif bor. Maktablarda **Virtual olam** haqida alohida qo'shimcha darslar o'tilishi zarur. Bu ularni ogohlantirish, internetdan foydalanish madaniyatini yoshlarda shakllantirish va eng muhimi ularda virtual olam haqida tasavvur ug'otishga xizmat qilardi. Bu darslar davomida virtual olamdagi zamonaviy kasblar, masalan, smm menedjeri, dasturchi, veb dizayner, kopirayter kabilar bilan yoshlar tanishtirilib, internetdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish zarur. Ikkinchi taklifim esa, ta'lim tizimidagi yodlashga asoslangan tartibni jahon tajribasidan kelib chiqib, o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish zarur. Aslida, vatan rivoji avtomatik tarzda robotdek bir vazifani bajaradigan kadrlarga emas, balki o'z dunyoqarashi va fikriga bo'lgan yoshlarga bog'liq. **Menda doim bir savol bo'lgan, nega o'quvchi she'r yodlab kelmasa ikki baho oladi?! Nega boladan uning ma'nosini, shoir nima demoqchi bo'lgani so'ralmaydi?** Ko'p kitobni mutolaa qilish mumkin, lekin asarning tub ma'nosiga tushunmagan kitobxonni qanday qilib yaxshi kitobxon deb atash mumkin. Agar maktablarda **"shaxsiy rivojlanish" (self development)** va **" mantiqiy va aqliy fikrlash" (metal and creative thinking)** kabi mashg'ulotlar o'tkazilishi yoki shu kabi fanlar kiritilsa, bu yoshlarni har tomonlama kuchli qiladi deb hisoblayman. Bu orqali yoshlar o'z-o'ziga, orzulariga ishonishni boshlaydi. Tumanimizdagi maktabning 5-sinf

o'quvchilari bilan yuqorida keltirgan mashg'ulotlarim asosida suhbat qildim. Mashg'ulot so'nggida ularning o'zlariga ishonchlari ortganini va maqsadlari qat'iylashganini sezdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (manba: uza.uz)-2019

2. N. Aripov. "Axborot texnologiyalari, o'quv qo'llanmalar", Toshkent, 2009. 368 b.

3. S. G'ulomov. "Axborot tizimlari va texnologiyalari" T. - "qo'shiq", 2000.yil

4. Xayrulla Umarov "Axborot xuruji, muammo va yechim"
<https://oyina.uz/uz/article/127>

5. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. <https://iiv.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>

6. Ta'lim tizimi islohotlari O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratadi – "Xalq so'zi" gazetasi. <https://xs.uz/uz/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>